QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 2-son)

IJTIMOIY FANLAR

SOCIAL STUDIES

QUYI ZARAFSHON VODIYSIDA BRONZA DAVRI ISHLAB CHIQARUVCHI XO‘JALIGI VA IJTIMOIY STRATIFIKATSIYA JARAYONLARI

https://doi.org/10.70728/a.series.v08.i02.111

Sultanov Samandar Maxmud o’g’li
Urganch davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada Quyi va O‘rta Zarafshon vodiysi, Janubiy Orolbo‘yi, Ustyurt hamda Markaziy Farg‘ona hududlarida mezolit, neolit, eneolit va bronza davrlarida shakllangan xo‘jalik-madaniy tiplar nazariy-qiyosiy tahlil asosida o‘rganiladi. Arxeologik manbalar asosida aholi joylashuvi, suv resurslari, migratsion jarayonlar va antropogen landshaftning ijtimoiy-iqtisodiy tizim shakllanishidagi o‘rni yoritiladi. Tadqiqot natijasida mazkur hududlarda xo‘jalik-madaniy tiplarning shakllanishi paleogeografik muhit bilan chambarchas bog‘liq ekanligi ilmiy asoslanadi.

Kalit so‘zlar: Quyi Zarafshon, O‘rta Zarafshon, Ustyurt, Markaziy Farg‘ona, neolit, eneolit, bronza davri, xo‘jalik-madaniy tip, Kaltaminor madaniyati, migratsiya, paleogeografik muhit.

Аннотация.В статье на основе теоретико-сравнительного анализа рассматриваются хозяйственно-культурные типы, сформировавшиеся в эпоху мезолита, неолита, энеолита и бронзы в Нижнем и Среднем Зарафшане, Южном Приаралье, Устюрте и Центральной Фергане. На основе археологических источников освещается роль природно-географической среды, водных ресурсов, миграционных процессов и антропогенного ландшафта в формировании социально-экономической системы древнего населения. Обосновывается взаимосвязь развития хозяйственно-культурных типов с палеогеографической средой региона.

Ключевые слова: Нижний Зарафшан, Средний Зарафшан, Устюрт, Центральная Фергана, неолит, энеолит, бронзовый век, хозяйственно-культурный тип, культура Кельтеминар, миграция, палеогеографическая среда.

Abstract. This article presents a theoretical and comparative analysis of economic-cultural types formed during the Mesolithic, Neolithic, Eneolithic, and Bronze Age periods in the Lower and Middle Zarafshan regions, the Southern Aral area, Ustyurt, and Central Fergana. Based on archaeological evidence, the study examines settlement patterns, water resources, migration processes, and the role of anthropogenic landscapes in shaping socio-economic systems. The findings demonstrate that the development of economic-cultural types

in these regions was closely interconnected with paleogeographic conditions and environmental factors.

Keywords: Lower Zarafshan, Middle Zarafshan, Ustyurt, Central Fergana, Neolithic, Eneolithic, Bronze Age, economic-cultural type, Kaltaminar culture, migration, paleogeographic environment.

Kirish. Quyi va O‘rta Zarafshon vodiysi, Janubiy Orolbo‘yi hamda unga tutash Qizilqum va Ustyurt hududlari ibtidoiy jamoa tuzumi tarixini o‘rganishda muhim paleogeografik va etnomadaniy makonlardan biri hisoblanadi. Mazkur hududlarda mezolit, neolit, eneolit va bronza davrlarida shakllangan xo‘jalik-madaniy tiplar qadimgi aholi turmush tarzi, xo‘jalik yuritish shakllari hamda etnik jarayonlarning rivojlanish bosqichlarini yoritishda muhim ilmiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, Ya.G‘.G‘ulomov boshchiligidagi Mahondaryo arxeologik ekspeditsiyasi, Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi hamda keyingi tadqiqotchilar – S.P. Tolstov, M.A. Itina, B.I. Vaynberg, N.U. Xolmatov va boshqalar tomonidan olib borilgan izlanishlar natijasida mintaqaning qadimgi tarixiga oid boy arxeologik ma’lumotlar to‘plangan.

Ushbu tadqiqotda arxeologik manbalar nazariy-qiyosiy tahlil asosida qayta ko‘rib chiqilib, Quyi va O‘rta Zarafshon, Ustyurt hamda Markaziy Farg‘ona hududlarida shakllangan xo‘jalik-madaniy tiplarning hududiy tasnifi va ularning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati yoritiladi. Tabiiy-geografik sharoit, suv manbalari, antropogen landshaft va migratsion jarayonlar qadimgi jamoalarning joylashuvi hamda xo‘jalik faoliyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatgan asosiy omillar sifatida baholanadi.

Tahlillar va Natijalar. Bronza davrida Oqchadaryo irmog‘i shimoli-sharqida Baraktom-10 xo‘jalik madaniy tipi, Sirdaryo shimoliy va sharqiy tekisligida Saksavul, Tamin, Kosmola, Aymara kabi neolit davri urug‘ jamoalari geografik kenglikda etnik munosabatlarni olib borganlar. Ammo tadqiqotda Sulton Uvays tog‘i atroflarida eneolit davrida xo‘jalik-madaniy tiplar bo‘lgan Qamishli manzilgohlarida o‘rnashgan axolini bronza davrida olib borgan xo‘jaligi masalasida fikr-mulohazalari kuzatilmaydi.

B.I.Vaynbergning Quyisoy balandligida o‘rnashgan neolit davri urug‘ jamoalarining bronza davrida Dovdon irmog‘ida suvi to‘xtab qolganligi sabab, mil.avv.gi VII asrga xo‘jalik-madaniy xayot so‘ngan degan fikri to‘g‘ri[25]. Bunday arxeologik izlanishlar natijalari asosida Quyi Zarafshon vodiysida mezolit davrida bronza davri oxirigacha axoli turar-joylari tipi bo‘lib etnik munosabatlar markazlari bo‘lgan.

Chunonchi; Quyi Zarafshon vodiysida ibtidoiy jamoa tuzumi tarixini o‘rganishda Ya.G‘.G‘ulomov raxbarligida Mahondaryo arxeologiya ekspeditsiyasi, Xorazm ekspeditsiyasi bilan xamkorlikda Samarqand Davlat Universiteti, arxeologiya ekspeditsiyasi xamda O‘zbekiston Polsha va O‘zbekiston-Fransiya ilmiy markazlari xamkorligida Quyi Zarafshon

[25] Вайнберг Б.И. Этногеография Турана в Древности-М.Из. Вост.лит РАН-1999-С.20.

vodiysida mezolitdan bronza oxirigacha axoli tomonidan qoldirilgan arxeologik yodgorliklarida keng qamrovli ravishda olib borgan arxeologik izlanishlar natijalarini asos qilib, xo‘jalik-madaniy tiplarning vujudga kelishi, shakllanish tarixini yoritish mumkin. Quyi Zarafshon vodiysi mezolit va quyi Zarafshon monografiyasi ikkinchi bo‘limida Quyi Zarafshon vodiysi xududida Chorbakti soyida Chorbakti 11,23,27,41 manzilgohlari ni mezolit davrida xo‘jalik-madaniy tiplar iqtisodiy manbalar asosida rivojlanishi davom etgan[26].

Quyi Zarafshon neolit uchinchi bo‘limi Zarafshon daryosi suv sathi ko‘tarilishi natijasida undan Qizilqum tomon yunalgan Daryosoy, Echkiliksoy, sharqiy va g‘arbiy Oyoqagitma xamda Chorbakti atroflarida joylashgan neolit davri urug‘ jamoalari tomonidan qoldirilgan manzilgohlar to‘g‘risida tarixiy ma’lumotlar o‘rin olgan. Tadqiqotchi xulosasiga ko‘ra, yuqorida qayd qilingan o‘zanlar sohili atroflarida 700 ta, ya’ni Echkiliksoy – 30, Sharqiy Oyoqagitma-269, g‘arbiy Oyoqagitmada-127, Daryosoyda-200, Chorbaktida 60 ta turar-joylarda neolit davrida o‘rnashib etnik munosabatlar olib borganligini qayd qilgan[27]. Tadqiqotchi Quyi Zarafshonda neolit davri axoli o‘rnashgan manzilgohlarni geografik o‘rni, joylashish xususiyatlari asosida xo‘jalik-madaniy tiplarga ajratishni e’tibordan qolgan.

Monografiyada Quyi Zarafshonda neolit davri manzilgohlarni quyidagi xo‘jalik-madaniy ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy xududlarga, ya’ni tiplarga ajratish mumkin:

1-Xo‘jalik-madaniy xududa Uchaщi-131 manzilgohi jalb qilinadi. Tadqiqotchi tomonidan 200 ta manzilgohni aloxida Uchaщi atamasi asosida xo‘jalik-madaniy tiplarni taklif qilish mumkin. Tadqiqotchi Zarafshon daryosi Maxondaryo va Go‘jayli o‘zanlariga e’tibor qaratilmagan, lekin Mahondaryo va Go‘jayli irmoqlari xarakati natijasida hosil bo‘lgan Kichik va katta Tuzkonlar atrofida Darbazaqir – 1,2 manzilgohlari qayd qilinmaydi, lekin monografiyada alohida joylashtirilgan. Shu ma’nodan kelib chiqib, mazkur tuzkonlar sohili adog‘iga ulangan xududda ikki-Darbazaqir 1,2 manzilgohlari xo‘jalik-madaniy tiplarni hosil qilgan[28] . Shuningdek Zarafshon vodiysi shimoli-g‘arbida joylashgan Chorbakti xavzasida 60 ga yaqin neolit davri manzilgohlarni qayd qilgan, shu asosda albatta bu xududda 59 ta geografik joylashishini inobatga olib aloxida xo‘jalik-madaniy tiplarga ajratish imkoniyati mavjud[29]. Tadqiqotchining ikkinchi monografiyasida O‘zbekiston xududi neolit davri urug‘ jamoalari turar-joylari tarixiga bag‘ishlangan. Bunda vatanimizning viyatlarida axoli turar-joylarida olib borilgan arxeologik izlanishlar natijalari qamrab olingan. Ularning topografik joylashishi, geografik xolat, ekologiyasi, ularda o‘rnashgan axoli tomonidan yaratilgan moddiy madaniyatiga oid geografik axborotlar keng, shu asosda tabiiy-iqtisodiy xududlar geomorfologiyasini tasvir qilgan xo‘jalik-madaniy viloyatlar tarixiy geografiya, etnodemografiya masalalarni yoritish imkoni katta. Albatta axolining migratsion jarayonida vujudga kelgan turar-joylar geografik o‘rinda joylashishini inobatga olib, O‘zbekiston

[26] Холматов Н.У. Мезолит и неолит Нижнего Зарафшана-Тошкент:Фан, 2007-С 29-30.
[27] Холматов Н.У. Кўр.асар-С-44.
[28] Холматов Н.У. Кўр.асар-С 44.
[29] Холматов Н.У. Кўр. асар-С 51-103.

geoiqtisodiy xududlarda ajdodlarimizning bosib o‘tgan tarixiy yulini tarixi xo‘jalik-madaniy tiplarda aks etgan. Jumladan: Monografiyaning birinchi bo‘limida Oqchadaryo xavzasi geografik xolati, janubiy va shimoliy Oqchadaryo xavzasiga bo‘linganligi, ularning geografik xolati, axoli joylashishi.

S.P.Tolstov ilk monografiyasida Jonbas-4, Tolstov makoni madaniy qatlamlaridan moddiy ashyolar olinganligi to‘g‘risida xulosalari izoh qilingan.

Quyi Zarafshon vodiysida O‘rta Osiyo xududlariga qaraganda juda ko‘p neolit davriga oid turar-joylar xamda Zarafshon vodiysi shu atamada daryo suv sathi ko‘tarilishi natijasida shimoliy irmog‘i Echkiliksoy, Oyoqagitma, Daryosoy suv ta’minoti, Mahondaryo va Go‘jayli irmoqlari xam xarakatda ekanligi, ularning suv ta’minoti yuqori bo‘lganligi bois, Kichik va Katta Tuzkonlar atrofida Darbazaqir I, II manzilgohlari, Uchащi-131 madaniy qatlamidan olingan suyaklar olinganligini Maxondaryo arxeologik izlanishlari natijasida neolit davri ashyolari Kaltaminor madaniyatiga xosligi qayd qilingan[30]. Qizilqumni Gazli xududida Chorbakti xavzasi neolit davri yodgorliklari to‘g‘risida ma’lumotlarni qayd qilgan. Lavlakan (Qizilqum ichki xududi), janubi-g‘arbiy xudud geografik xolati, sho‘r suvlar ustunlik qilishi tadqiqotchilar fanda “Lavlakan” namligi nomni adabiyotlar saxifasidan o‘rin olishga muvaffaq bo‘lgan.

Monografiya ikkinchi bobida Ustyurt, Sazag‘on va Markaziy Farg‘ona madaniyati deb nomlanib, bunda Ustyurt xududi geografik xolati antropogen landshafti, ekologiyasi, axoli joylashishi, o‘zlashtirilishi Yesen 2,3, Qoraquduq, Churuk-12 manzilgohlari ashel davridan faoliyat olib borganligi, keyingi tarixiy davrda madaniy hayot davom etganligi, neolit davriga oid 150 ta turar-joylar mavjudligi, yirik suv havzalari Churuk, Aydabol, Oqtaylik, Isatay kabi manzilgohlar, ular mavsumiy bo‘lgan (Oqtaylik, 1,20,25). Ye.B.Bijanovning Ustyurt chinkida olib borgan arxeologik izlanishlar natijasida neolit davrida kechgan jarayonlarni uch tarixiy davrga ajratishiga urg‘u bergan. Umuman, Ustyurt ashel davridan e’tiboran neolit davrida urug‘ jamoalari markaziy xududda zich joylashganligi to‘g‘risida xulosaga kelgan. Shu bilan birga, tadqiqotchi o‘rta Zarafshon xududida neolit davri manzilgohlari joylashishiga e’tibor bergan. Bu xudud ikki Qizilqumga ulanib ketgan. Tadqiqotchi o‘rta Zarafshon xududida Sazag‘on 1,2 Jangal, Tepaqul 3,4, Lolab, Qorakamar, Ochil-g‘or manzilgohlarini arxeologik jixatidan o‘rganishi taxlil qilingan. Navbatdagi bandi Markaziy Farg‘ona madaniyati tarixiga oid birneche fikr-mulohazalarini bayon qilgan. Masalan, Farg‘ona vodiysi ashel davri Sengur manzilgohi odamlarining o‘rta, so‘nggi tosh davri, mezolit davrlarida odamzot yashaganini qayd qilib, “Markaziy Farg‘ona” atamasini fanga olib kirgan[31].

Quyi Zarafshon vodiysi neolit davri tarixini ilk o‘rganishni olib borgan Ya.G‘.G‘ulomov raxbarligida Mahandaryo arxeologik guruhi hisoblanadi. Yuqorida qayd

[30] Гулямов Я.Г, Исламов У.И, Аскаров А. Первобытная культура и возникновение орошаемого земледелия в Низовьях Зарафшана-Ташкент:,Фан, 1966. 266 С.
[31] Холматов Н.У. Ўзбекистон неолит даври жамоаларининг моддий маданияти-Тошкент,Фан, 2008-Б. 24-55.

qilingan tarixiy ma’lumotlardan kelib chiqib, quyi Zarafshonda mezolit, neolit va eneolit davrlarida quyidagi xo‘jalik-madaniy tiplarni shkllantirish mumkin:

1.Quyi Zarafshon vodiysida:

Mahondaryo va Go‘jayli irmoqlari tizimida Kichik va Katta Tuzkonlar atrofi xo‘jalik-madaniy tipni xosil qiladi. Darbazaqir-1. Axoli son miqdori oshganligi sabab, yaqin xudud o‘zlashtirilishi munosabati bilan ikkinchi xo‘jalik-madaniy tip-Darbazaqir-2 ni tashkil qilish mumkin.

Zarafshon daryosi ikkinchi o‘zani Daryosoy irmog‘i quyi havzasiga ulanib ketgan Qizilqum sochma qum tepaliklari oralig‘ida suv havzalari sohili etaklarida Uchащi- 131 manzilgohi urug‘ jamoalari aholi soni oshganligi sabab, yangi vujudga kelgan suv manbalaridan foydalanish uchun ko‘chib kelgan urug‘ jamoalarini 200 xo‘jalik-madaniy tiplarga ajratish mumkin:

-Echkiliksoy-irmog‘i quyi xududida Sharqiy Oyoqagitma irmog‘i tizimida urug‘ jamoalari uning o‘zlashtirilishi natijasida 269 ta, g‘arbiy Oyoqagitmada 127 ta xamda Chorbakti irmog‘i quyi qismida 60 ta xo‘jalik-madaniy tiplarni tashkil qilish mumkin. Quyi Zarafshon vodiysida neolit davri urug‘ jamoalarining eneolit davrida olib borgan moddiy madaniyati to‘g‘risida ma’lumotlar tadqiqotchilar asarlarida kuzatilmaydi.

Tadqiqotchilar asarlarida Quyi Zarafshon vodiysida bronza davriga oid qilingan ma’lumotlarda Zomonbobo ko‘li sohili etagida mil.avv.gi III ming yillik oxirida o‘rnashgan qabila joylashganlligi to‘g‘risida xulosa qayd qilingan[32].

Mazkur xulosalarni inobatga olib Quyi-Zarafshon –Buxoro vohasida yagona Zomonbobo bronza davri xo‘jalik-madaniy tipni tashkil qilish mumkin.

Zarafshon vodiysi quyi xavzasiga ulanib ketgan ichki Qizilqum saxroi sharoitida 20 dan ziyod neolit davri urug‘ jamoalaridan iborat Lavlakanda o‘rnashgan neolit davri axolisi suv xavzalari organik dunyosidan foydalanish mobaynida yagona xo‘jalik-madaniy tip shakllangan, keyingi tarixiy davrda aholi soni oshganligi munosabati bilan vujudga kelgan oziq-ovqat muammosini xal qilish maqsadida tevarak-atrofida shakllangan suv xavzalari sohil etaklariga ko‘chib kelib, ular albatta mavsumiy bo‘lgan (tabiat in’omiga bog‘liq bo‘lgan). Shu munosabat bilan 19 ta xo‘jalik -madaniy tiplar shakllangan bo‘lishi mumkin. Lekin tadqiqotchi N.U. Xolmatov Lavlakan axolisi son miqdori oshganligi, qo‘shni xududlarga ko‘chish tadbiri natijasida quyi Zarafshon, ichki Qizilqumda shakllangan xo‘jalik-madaniy tiplarni e’tiborga olgan emas. Shu bilan tadqiqotchi monografiyasida o‘rta Zarafshon xududida neolit davri urug‘ jamoalari Qizilqum geografik xususiyatiga ko‘nikib xo‘jalik sohalarni olib borgan ovchilar va termachilar tarixiga oid xulosalarini qayd qilgan. N.U.Xolmatov fikricha,o‘rta Zarafshon xududi geografik manzarasini Qoratepa tog‘ massivi shimoliy yon bag‘rida o‘rnashgan neolit davrida xo‘jalik sohalarini olib borgan aholi turar-joylari to‘g‘risida

[32] Гулямов Я.Г, Исламов У.И, Аскаров А. Первобытная культура- С.171-179. Аскаров А. Культура Заман-Баба в Низовьях Зеравшана. //ОНУ. Ташкент,:Фан, 1962 № 1- С. 59-65. Ўша муаллиф. Бухоронинг ибтидоий давр тарихидан лавҳалар-Тошкент:Фан, 1973.Б.15-21.

ma’lumotlarni qayd qilgan. Bunda Oxalik, Sazag‘on 1,2, Jangal, Tepaqul 3,4, Lolab, Qora Kamar, Ochil-g‘or ochiq tipda va g‘or-makonlarda qazishmalar natijasida olingan manbalarni izoh qilgan[33]. Ammo, mazkur manzilgohlarning xo‘jalik-madaniy tiplarni shakllanish jarayoniga e’tibor berilmaydi. Yuqorida qayd qilingan ma’lumotlar nazariy-qiyosiy taxlil asosida o‘rta Zarafshon xududida quyidagi xo‘jalik-madaniy tiplarni shakllantirish mumkin.

O‘rta Zarafshon xududi Qoratepa massivida neolit davri shakllangan xo‘jalik-madaniy tiplar:

1-Sazag‘on-1 xo‘jalik madaniy tip mezolit davrida shakllangan, axoli soni oshganligi munosabati bilan migratsion tadbirni olib borishi munosabati bilan neolit davri xo‘jalik-madaniy tip-Sazag‘on-2 bo‘lgan.

O‘rta Zarafshon vohasi Qoratepadan oqib tushgan suvlardan hosil bo‘lgan soylardan biri Ohaliksoy yon bag‘rida joylashgan Oxalik manzilgohi xo‘jalik-madaniy tipi bo‘lgan. Shuningdek shunday soylardan Egriqulchasoy so‘l qirg‘og‘ida joylashgan Jangal manzilgohi xo‘jalik-madaniy tipni tashkil qilgan. Tepaqul qishlog‘i xududida Tepaqulsoy yon qismida joylashgan Tepaqul-3, 4 va 5 manzilgohlarni alohida xo‘jalik-madaniy tiplarga ajratish mumkin. Shu bilan birga Sazag‘onsoy darasi bo‘ylab joylashgan tabiiy ravishda tarkib topgan Lolab g‘or-makoni yopiq uslubda xo‘jalik- madaniy tip bo‘lgan. Bunday g‘or-makonlari Sazag‘onsoyga qo‘shni katta quruqsoy o‘zanida joylashgan Qorakamar g‘or-makon xam yopiq sharoitda bo‘lgan. Bunday yopiq tipda xo‘jalik-madaniy tip shakllangan.

Kichik va Katta Quruqsoy xududida Kichik Quruqsoy, Qorakamar va Sazog‘on soy yon bag‘rida Ochil-g‘or makonlari yopiq xo‘jalik-madaniy xo‘jalik tiplar ovchilar va termachilarga hizmat qilgan. Shu bilan tadqiqotchi Markaziy Farg‘ona neolit davri madaniyati asosi bo‘lgan manzilgohlarni joylashishiga e’tiborni qaratgan.

Farg‘ona vodiysida olib borilgan arxeologik qidiruv ishlari natijasida ro‘yxatga olingan manzilgohlarda qazishma ishlari olib borilishi natijasida ilk tosh davridan bronzadavri oxirigacha bo‘lgan tarixiy jarayonni natijalariga e’tibor bergan.

Tadqiqotchilar nashrlarida qayd qilingan tarixiy ma’lumotlar asosida Selengur, g‘or-makonida o‘rnashgan ovchilarning Tarix taqozasi natijasida turar-joylari to‘g‘risida xulosalarini qayd qilgan. Masalan: Markaziy Farg‘ona tekisligida Selengur ovchilari avlodlari tevarak-atrofni o‘zlashtirish natijasida mezolit neolit va bronza davriga oid turar-joylari to‘g‘risida o‘z xulosalarini izohlagan. Neolit davri manzilgohlari Uzunqo‘l, Sharqo‘l, Damko‘l, Ashiko‘l, Sariqsuv, Mingbuloq manzilgohlari, ularda istiqomat qilgan urug‘ jamoalari axoli o‘sishi munosabati bilan tevarak-atroflarni o‘zlashtirib, yangi geografik sharoitga moslashib, birqator turar-joylarda istiqomat qilib, etnik munosabatlarni olib borganlar. N.U.Xolmatov xulosasiga ko‘ra, tekislikni turli xududlarda o‘rnashib, ovchilik. Termachilik va xunarmandchilikni rivojlantirganlar. Jamiyat rivojlanishiga munosib hissa qo‘shganlar.

[33] Холматов Н.У. Ўзбекистон неолит даври жамоаларининг.. Б 41-47.

Xulosa. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Quyi va O‘rta Zarafshon vodiysi, ichki Qizilqum, Ustyurt hamda Markaziy Farg‘ona hududlarida mezolitdan bronza davrigacha bo‘lgan davrda xo‘jalik-madaniy tiplar bosqichma-bosqich shakllangan va rivojlangan. Suv havzalari — Mahondaryo, Go‘jayli, Daryosoy, Echkiliksoy, Oyoqagitma, Chorbakti, shuningdek Kichik va Katta Tuzkonlar atrofida aholi zich joylashgan bo‘lib, ular iqtisodiy va etnik munosabatlar markazlariga aylangan.

Neolit davrida Kaltaminor madaniyati doirasida shakllangan xo‘jalik-madaniy tizimlar keyinchalik eneolit va bronza davrlarida yangi sharoitga moslashgan holda transformatsiyalashgan. Ayrim hududlarda suv manbalarining qurishi yoki o‘zgarishi xo‘jalik hayotining susayishiga olib kelgan bo‘lsa-da, boshqa hududlarda migratsion jarayonlar natijasida yangi xo‘jalik-madaniy markazlar vujudga kelgan.

Nazariy-qiyosiy yondashuv asosida Zarafshon vodiysi va unga tutash hududlarda xo‘jalik-madaniy tiplarni hududiy tasniflash, ularning ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy xususiyatlarini aniqlash mumkin. Bu esa O‘zbekiston hududida ibtidoiy jamoalarning tarixiy taraqqiyot yo‘lini geoiqtisodiy va paleogeografik omillar bilan uzviy bog‘liq holda talqin qilish imkonini beradi.

Adabiyotlar

1. Гулямов Я.Г, Исламов У.И, Аскаров А. Первобытная культура и возникновение орошаемого земледелия в Низовьях Зарафшана-Ташкент:,Фан, 1966. 266 С.

2. Гулямов Я.Г, Исламов У.И, Аскаров А. Первобытная культура- С.171-179. Аскаров А. Культура Заман-Баба в Низовьях Зеравшана. //ОНУ. Ташкент,:Фан, 1962 № 1- С. 59-65. Ўша муаллиф. Бухоронинг ибтидоий давр тарихидан лавҳалар-Тошкент:Фан, 1973.Б.15-21.

3. Вайнберг Б.И. Этногеография Турана в Древности-М.Из. Вост.лит РАН-1999-С.20.

4. Холматов Н.У. Мезолит и неолит Нижнего Зарафшана-Тошкент:Фан, 2007-С 29-30.

5. Холматов Н.У. Ўзбекистон неолит даври жамоаларининг моддий маданияти-Тошкент,Фан, 2008-Б. 24-55.

6. Холматов Н.У. Ўзбекистон неолит даври жамоаларининг.. Б 41-47.